



**Toshkent davlat yuridik universiteti**

**va**

**O. E. Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti (MDYU)**

**o'rtasida**

## **HAMKORLIK TO'G'RISIDA SHARTNOMA**

Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda "**Toshkent davlat yuridik universiteti**") deb yuritiladi) va Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi "O.E. Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti" (keyingi o'rinlarda "**O.E. Kutafin universiteti (MDYU)**") deb yuritiladi, birgalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, ular vakillik qilayotgan muassasalar nomidan bir-birining ushbu Shartnomani tuzishga huquqiy layoqatini tan olib, xalqaro akademik almashinuvlarni mustahkamlash va ikki universitetning ilmiy va ta'lim darajasini oshirishga intilib, quyidagilarga kelishib oldilar:

### **1. Shartnomaning predmeti**

Mazkur shartnomaning maqsadi Tomonlar o'rtasida ilmiy-tadqiqot va ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli sohalarda akademik hamkorlikni kengaytirishdan iborat. Hamkorlik yo'nalishlari birgalikda amalga oshirilayotgan ta'lim va tadqiqot dasturlarini o'z ichiga oladi.

### **2. Hamkorlikning shakllari**

Mazkur shartnomani imzolashda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun Tomonlar quyidagilarga kelishib oladi:

- a) o'qituvchilar, ma'muriy xodimlar, aspirantlar va talabalar almashinuvi;
- b) xorijiy talabalar uchun rus tilini chet tili sifatida o'zlashtirish dasturlarini amalga oshirish;
- c) xorijiy talabalar uchun rus va/yoki ingliz tillarida magistratura dasturlarini tashkil etish;

- d) "Chet elda semestr" qisqa muddatli ta'lim dasturlari orqali talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish;
- e) o'zaro manfaatli qo'shma ilmiy va tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;
- f) o'zaro manfaatli axborot materiallari, hujjatlar, ilmiy nashrlar almashinuvi;
- g) konferentsiyalar, seminarlar, biznes uchrashuvlari va forumlar shaklida qo'shma tadbirlarni tashkil etish;
- h) tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini va boshqa harakatlarni amalga oshirish;
- i) O.E. Kutafin universiteti (MDYU)ning xususiy huquq bo'yicha ilmiy-ta'lim markazining muvofiqlashtiruvchi roli orqali xususiy huquq va fuqarolik protsessi sohasida ilmiy-tahliliy tadqiqotlar olib borish.

### **3. Moliyaviy majburiyatlar**

Mazkur Shartnoma Tomonlar uchun moliyaviy majburiyatlarni nazarda tutmaydi.

Agar moliyalashtirish zarurati bo'lsa, Tomonlar har ikki tomonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq faoliyatni moliyalashtirishni uchun zarur sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar.

### **4. Birgalikdagi faoliyat natijalari va intellektual mulk**

Mazkur Shartnomani amalga oshirish doirasida erishilgan, Intellektual va sanoat mulki to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash doirasiga kirmaydigan natijalar har ikki Tomonga tegishlidir.

Natijalarni tarqatishda doimo ushbu shartnomaga murojaat qilinadi.

Olingan natijalar intellektual va sanoat mulkini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq himoya qilinishi shart bo'lgan holarda mazkur Shartnomani amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar e'tiboriga etkaziladi va ular ushbu sohadagi amaldagi qonunchilik doirasida yuzaga keladigan huquqlarga rioya etilishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar.

### **5. Maxsus kelishuvlar**

Mazkur Shartnoma Tomonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan aniq loyihalarni amalga oshirish bo'yicha maxsus kelishuvlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda ular doirasida qo'shma loyihalarni amalga oshirishning texnik, huquqiy va iqtisodiy jihatlari ishlab chiqiladi. Qo'shma loyihalar va tadbirlarni amalga oshirishning rejalashtirilgan muddatlarini hisobga olgan holda, ularning har birida ko'rsatilgan muddatga maxsus shartnomalar tuziladi.

### **6. Boshqa hamkor tashkilotlar**

Tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra, maxsus bitimlarda boshqa davlat yoki xususiy tashkilotlarning loyihalarda ishtirok etishi to‘g‘risidagi qoidalar, ularni jalb qilish shartlari ko‘rsatilishi mumkin.

#### **7. Ma‘lumotlarni himoya qilish**

Tomonlar mazkur Shartnomani amalga oshirish doirasida olingan shaxsiy ma‘lumotlardan maxfiy tarzda foydalanish va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha har bir davlatda o‘rnatilgan qonun hujjatlari talablariga muvofiq muomala qilish majburiyatini oladilar.

Tomonlar shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligini kafolatlash va ularning o‘zgarishi, yo‘qolishi va ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun texnik va tashkiliy choralar ko‘rish majburiyatini oladilar.

#### **8. Nizolarni hal qilish**

Tomonlar mazkur shartnomani amalga oshirish bilan bog‘liq har qanday nizo yoki kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish uchun barcha mumkin bo‘lgan vositalardan foydalanadilar.

#### **9. Yakuniy qoidalar**

Mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 (besh) yil davomida amal qiladi. Agar Tomonlardan biri boshqa Tomonni ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan kamida 6 (olti) oy oldin uni bekor qilish niyati haqida yozma ravishda xabardor qilmasa, ushbu Shartnoma avtomatik ravishda keyingi besh yillik davrlarga uzaytiriladi.

Mazkur Shartnomaning tugatilishi, mazkur shartnomaning amal qilish muddatida kelishilgan qo‘shma loyihalar, dasturlar va boshqa tadbirlarni amalga oshirishga ta‘sir qilmaydi, lekin Tomonlar kelishuviga asosan bekor qilinishi mumkin.

Mazkur shartnoma 2024-yilda 10-iyun kuni o‘zbek va rus tillarida ikki nusxada tuzildi, ularning har biri bir xil yuridik kuchga ega.

Federal davlat avtonom oliy ta'lim Toshkent davlat yuridik universiteti  
muassasasi "O.E. Kutafin" nomidagi  
Moskva davlat yuridik universiteti

Rossiya Federatsiyasi, 123242, Moskva O'zbekiston Respublikasi, 100047,  
sh., Presnenskiy shahar okrugi, Sadovaya- Toshkent shahri, Saylgoh ko'chasi, 35  
Kudrinskaya ko'chasi, 9-uy, 1-bino

Rektor

Rektor v.v.b

V.V. Blazheev

I. R. Rustambekov



«10» iyun 2024y.

«10» iyun 2024y.